



XARAKTERNI YORITISHDA KONFLIKTNING ROLI

Sharifov Siroj Zarif o'g'li

Quyosh NTM, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mustaqillik davri o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakili Ulug'bek Hamdamning ko'p bahslarga sabab bo'lgan, ko'plab kitobxonlar qalbidan joy olishga ulguragan "Muvozanat" romanidagi xarakterlar hamda uni yaratishda konfliktning o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Xarakter, konflikt, ruhiyat tasviri, iztirob, quvonch, azob, kechinma, taqdir, alam, og'riq, tuyg'u.

Abstract: *Ulug'bek Hamdam, a prominent representative of Uzbek literature in the period of independence, caused a lot of controversy. It talking about the characters in the roman "Balance", which have managed to find a place in the hearts of many readers, and the role of conflict in its creation.*

Keywords: *Character, conflict, landscape, mental image, suffering joy, suffering, experience, fate, pain, feeling.*

Badiiy adabiyotda qanday asar yaratilmasin, u eng avvalo, inson kechinmasi, his-tuyg'usining in'ikosi bo'lib maydonga keladi. Bu jarayon, ayniqsa, roman janrida yaqqol namoyon bo'ladi, ya'ni o'zining yorqin qiyofasini ko'rsatadi.

"Roman – yozuvchi tafakkuri, hayotiy tajribasi, e'tiqodi, olam-u odam haqida teran o'ylarining samarasi o'laroq paydo bo'lar"⁶⁰ ekan, uning rivojlanish tendensiyasini asardagi qahramonlar xarakteri boshqarib turadi. Demak, "Xarakter – yaratilsagina badiiy asar yaratiladi" (N. Pogodin).

Badiiy adabiyotda xarakter yaratuvchi badiiy tasvir vositalari talaygina bo'lsa-da, ayniqsa, makon va zamon, ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari konflikt tasviri ham borki, usiz roman qahramonlari xarakterini shakllantirib bo'lmaydi. Xususan, adabiyotshuos olim Hotam Umurov "Konflikt bu – sujetni harakatga soluvchi kuch. Uning ta'sirdorligini, qiziqarililigini, ko'lamini belgilovchi unsurdir"⁶¹, deb ta'kidlaydi va uchta turi borligini yozadi:

1. Psixologik (ruhiy) konflikt (qahramon qalbidagi hissiyotlar, tushunchalar kurashi).
2. Ijtimoiy konflikt (asar qahramonlari bilan ular yashayotgan sharoit o'rtasidagi kurash).
3. Shaxsiy – intim konflikt (bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar, guruhlar o'rtasidagi kurash).

Konfliktning ushbu xillari hamma romanlarda uchraydi va asardagi qahramonlar xatti-harakatlari chizig'ini yaratib turadi.

Bugungi kun badiiy adabiyotda yuqorida sanab o'tilgan konfliktning psixologik (ruhiy) turi asar qahramonlari xarakterini belgilashda qolganlariga nisbatan ustunlik qilayotganiga amin bo'lamiz. Bu jarayon, ayniqsa, braziliyalik yozuvchi Paulo Koeloning

⁶⁰ Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. Т. : "Шарқ" нашриёти, 2007-йил, 65-бет.

⁶¹ Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Т.: А. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004-yil, 123-бет .



“Alkimyogar”, “Beshinchi tog” asarlarida, o‘zbek adabiyotida esa Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat”, “Isyon va itoat”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod” romanlarida yaqqol sezilib turadi. Yuqoridagi asarlarni birlashtiruvchi umumiy g‘oya: inson “men”i – o‘zligi hisoblanadi. Olam va odam haqidagi fikr-o‘ylar, insonning naqadar murakkab yaratilgan ekanligini (ular yaratgan va yaratayotgan narsalarning ijobiy xislatlari-yu salbiy oqibatlarini ham), botinida kechayotgan kechinmalarning oddiy ko‘z bilan anglab bo‘lmasligiga, balki qalb kechinmalari, hissiyotlari vositasida fahmlash mumkinligiga, inson ichki dunyosining naqadar murakkab ekanligiga ishora sezilib turadi va insonning ana shu “men” bilan “jang”i tasvirlanadi.

Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romanida Yusufning xarakterini yaratishda bir qarashda ijtimoiy muhitning roli bo‘rtib ko‘zga tashlanayotgandek ko‘rinsa-da, lekin uning xarakterini yaratishda yozuvchi Yusufning “men”ini (botinidagi o‘zlik) o‘ziga qarama-qarshi qo‘ygan va shu orqali Yusufni xarakterini yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Asarning ko‘pgina o‘rinlarida Yusufning o‘z-o‘zi bilan gaplashishlari (ichki monologi): goh o‘zining qilayotgan ishini ma’qullashi, gohida o‘zining o‘zligidan jirkanish tasvirlarini yuqoridagi fikrimizning isboti desak bo‘ladi. Masalan, Yusufning qishloqqa borgan paytda akasi Amir bilan o‘zaro suhbatida, unga ijtimoiy muhitning ta’siri emas, balki o‘z ichidagi inson – “men” bilan “jang”i uni qiynayotganini, u bilan kelisha olmayotgan”ini aytib kuyunganlari, Amirning esa unga munosabati kabilar yuqoridagi fikrimizga oyna tutadi.

– Tavba, odamlar bir-biri bilan urishsa, men doim o‘zim bilan o‘zim jang qilaman. Boshqalar bilan urishishga, olishib yurishga menda na fursat bor va na rag‘bat...

– To‘g‘ri aytasan, hamma narsa, aslida, bizning ichimizda. Chin dunyo ham, haqiqiy jang ham, chinakam g‘alaba ham. O‘sha yerda g‘olib bo‘lsang bas, uloq menda ketdi deyaver. Qolgani bir pul.

– Faqat ana shu yerdagi muvaffaqiyatning natijalarini tashqariga – moddiy dunyoga muhaqqaq olib chiqish va hayotga tadbiq etish zarur. Toki bu narsa och odamning non, ishsizning ish, dardmandning shifo, dahriyning ishonch... topishiga ko‘mak bersin. Ana shundagina muqaddas “muvozanat”ga erishamiz. Qanoatimcha menga zarur bo‘lgan baxt shu.

– Mayli, uka, sen o‘z yo‘lingdan ketaver, men – o‘zimnikidan”⁶².

Asarda tasvir etilgan konflikt tasvirlar: ijtimoiy konflikt (Yusuf, Amir, Muhammadjon aka, Sodiq, Oygul... va ijtimoiy muhit), intim konfliktlar (Yusuf – Amir; Yusuf – Said va Mirazim) psixologik (ruhiy) konfliktning alanga olib, yanada baland yonishi uchun benzin (yonilg‘i) vazifasini o‘tab, Yusufning “dushman”i (“men”i – o‘zligi)ni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida tasvirlangan va asar so‘ngiga qadar Yusufni qayta-qayta “jang” qilishga chorlaydi: uni murosaga chaqiradi, o‘ylashga, to‘g‘ri yo‘lni tanlashga, “muvozanat”ni saqlashga majbur qiladi:

- Men nega bunday nochor ahvolga tushib qoldim ?..
- Qayerda adashdim?!.. Nahotki shunchalik tubanlashgan bo‘lsam!..

⁶² Hamdam U. Vatan haqida qo‘shiq. T.: “Akademnashr”, 2014, 152-bet. Keying iqtiboslarning sahifasi qavs ichida ko‘rsatiladi.



– Tavba, tavba!..” (177-b.)

Xarakter yaratishdagi ruhiy konflikt Ulug’bek Hamdamning “Isyon va itoat” romanida ham yaqqol namoyon bo’ladi. Bu jarayonni biz asar qahramoni hisoblangan Akbarning (Tabib, Tursunboy jontalash, Larisa xola, Dianalarning ham) xarakterida ko’ramiz. Bu asarda yozuvchi “men”ni ISYON deb nomlaydi va asar qahramonini “Muvozanat”ning qahramonidek (Yusuf) “jang”ga qo’yadi.

Asarda yozuvchi Akbarning xarakterini yaratishda dastlab shaxsiy – intim konflikt (maktabda o’quvchisi Sadr ismli bolaga tarsaki tushirishi va uning otasining “xun” talab qilishi) va ijtimoiy konflikt (qamoqxonadagi qonun himoyachilarining muttahamligi hamda shofyorning ko’zbo’yamachiligi – o’n ikki tonna qovun ortildi deb, o’z manfaatini ko’zlab sakkiz tonna qovun ortganligi, akasi Nurmatning o’z ukasi begona yurt – Rossiyada qandayin “mafiya”ning qo’lida garovda tursa-yu, tovon sifatida kelishilgan bir kamaz qovunni yarim yo’lda o’z manfaatini ko’zlab, yaxshigina kelishilgan narxda pullab, o’z qondosh jigarini ham uylamay ortga qaytishi)ga tayansa, keyinchalik psixologik (ruhiy) konfliktga suyanadi va asar oxiriga qadar undan asardagi asosiy xarakter (Akbar)ni yaratuvchi vosita sifatida foydalanadi.

Xulosa o’rnida gapirganda, bugungi kun badiiy adabiyotda xarakter yaratishda yozuvchilar inson ichki dunyosiga “hujum” qilmoqda. Milliy ruh bilan birgalikda, umuminsoniyatga xos muammo va kechinmalar taviriga e’tibor bermoqda-ki, bu o’z navbatida asarlarni xorijiy tillarga tarjima qilinib, ko’plab nusxalarda chop etilishiga asosiy sabab bo’lmoqda.

Har bir davr badiiy adabiyotining o’ziga xos tadqiqot predmeti – xarakter yaratish pafosi bo’ladi. Bugungi kun adabiyotidagi bu pafos – inson botini. Bu jarayonda har qanday yozuvchi xohlaydimi, yo’qmi bu elementni (“men”) tasvir etayotgan asar qahramonidan “yulib olib”, o’ziga qarama-qarshi qo’yib, psixologik (ruhiy) konfliktga murojaat qilmoqda. Bu esa davr adabiyotning o’ziga xos qiyofasini ham belgilab bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hamdam U. Vatan haqida qo’shiq. T.: “Akademnashr”, 2014.
2. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. Т. : “Шарқ” нашриёти, 2007-йил, 65-бет.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004-yil, 123-bet .